



INTELLEKT



2021-yil – Yoshlarni
qo'llab-quvvatlash va aholi
salomatligini mustahkamlash
yili

2020-yil 2-sentabrdan chiqqan boshlagan ● 2021-yil, 15-sentabr № 17(25) ● www.samdchti.uz ● E-mail: intellektinfo@inbox.uz

“YANGI O'ZBEKISTON STRATEGIYASI” — KELAJAK XARITASI

Muhtaram Yurtboshimizning «Yangi O'zbekiston strategiyasi» nomli kitobi yaqinda nashrdan chiqdi. Kitobning kirish qismida Yangi O'zbekistonni va Uchinchi Renessans poydevorini barpo etish borasida amalga oshirilayotgan tub o'zgarishlar va islohotlarning maqsadi, mazmun-mohiyati hamda ustuvor yo'nalishlari, milliy taraqqiyot istiqbollari haqida fikr yuritiladi.

Vaholanki, insoniyat ongli hayot kechira boshlagan davrdan buyon ta'lim va tarbiya masalasi doimo dolzarb ahamiyat kasb etib kelmoqda. Prezidentimizning «Yangi O'zbekiston strategiyasi» kitobida ta'lim va tarbiya mavzulariga alohida to'xtalib o'tilgan. Jumladan, yurtimizni har tomonlama taraqqiy ettirish, Yangi O'zbekistonni yaratish maqsadida barcha sohalar qatori ta'lim tizimida ham tub islohotlar olib borilmoqda. Bu borada o'nlab muhim qaror, farmon, konsepsiyalar va dasturlar qabul qilindi.

Yaqinda qabul qilingan «Ta'lim to'g'risida»gi qonun ushbu soha taraqqiyotida, hech shubhasiz, yangi ufqlarni ochib berishi, keng ko'lami demokratik o'zgarishlar, jumladan, ta'lim islohotlari orqali O'zbekistonda yangi Uyg'onish davri, ya'ni Uchinchi Renessans poydevorini yaratish bizga asosiy maqsad qilib belgilab berildi.

Yurtimiz yoshlarining tarbiyasida eng asosiy bo'lg'in hisoblangan maktabgacha ta'lim tizimining jamiyatimiz hayotidagi o'rni va ahamiyatini hech narsa bilan o'lchab bo'lmaydi. Mazkur yo'nalishni tizimli rivojlantirish bo'yicha davlat dasturlarining qabul qilinishi, bolalarni maktabgacha ta'lim bilan qamrab olish darajasi 2 barobarga oshirilib, 100 foizga yetkazish, shuningdek, xususiy maktablar tizimini yanada takomillashtirish, bitiruvchilarni oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasini 2030-yilgacha 60-70 foizgacha yetkazish oldimizda turgan muhim vazifalardan ekanligi kitobda alohida ta'kidlab o'tildi.

«Biz maktab muammosiga birinchi darajali masala deb qarashni davom ettirish, maktab faqat ta'lim beradigan maskan emas, balki barchamiz uchun yuksak ma'naviyat beshigiga, farzandlarimizni bolalikdan boshlab kasbga o'rgatuvchi dargohga aylanishi zarur» deya bejiz ta'kidlamagan muhtaram Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev.

Bugungi kunda yurtimizda oliy ta'lim tizimini yangi sifat bosqichiga olib chiqish, oliy o'quv yurtlari tizimini yanada rivojlantirish, sohadagi mavjud muammolarni bartaraf etish, pirovardida ilm-fanning yirik o'choqlariga aylantirishga alohida ahamiyat berilmoqda. Shuningdek, aholining oliy ta'lim bilan qamrab olinish darajasi oshirib borilmoqda.

Shu nuqtayi nazardan kelib chiqib, Samarqand davlat chet tillar institutida amalga oshirilgan islohotlarga ham to'xtalib o'tsak maqsadga muvofiq bo'ladi. Chet tillar bo'yicha malakali mutaxassislar tayyorlashda Samarqand davlat chet tillar institutining ham o'ziga

xos o'rni bor. Bugungi kunda oliy ta'lim muassasamizda o'n ikkita til bo'yicha bakalavr hamda magistr mutaxassislari tayyorlanmoqda. Xorijiy mamlakatlar bilan aloqalarimiz mustahkamlangan sayin institutimizga o'qishga kirish uchun hujjat topshiruvchilar hamda

Samarqand viloyatning Narpay hamda Payariq tumanlarida «Maktabgacha va boshlang'ich ta'limda xorijiy til (ingliz tili)» hamda «Xorijiy til va adabiyoti: ingliz tili» fakultetlarini ochdik.

Sohaga tegishli vazirlik mas'ullari bilan birga mazkur ikki tumanida ochilgan fakultetlarning har biriga 75 nafardan abituriyentni talabalikka qabul qildik. Bundan ko'zlangan asosiy maqsad chekka hududlardagi yoshlarning bandligini ta'minlash hamda ularning oliy ta'lim muassasalariga qamrovini oshirish bo'ldi.

Shuningdek, 1000 o'ringa mo'ljallangan 4 qavatli o'quv binosi mukammal qayta ta'mirdan chiqarilmoqda, talabalarni yetarli darajada turarjoy bilan ta'minlash maqsadida davlat-xususiy sherikchilik asosida yana bitta 600 o'ringa mo'ljallangan talabalar turar-joyi binosini qurish hamda institutning 2-sonli talabalar turar-joyiga ikki kishilik yotoq krovatlar o'rnatish orqali 300 ta o'rin yaratish kabi ishlar boshlab yuborildi.

Mamlakatimizda yangi oliy ta'lim muassasalari, jumladan, xorijiy oliygo'harlarning filiallari tashkil etilib, ularning soni 200 taga yetkazilishi, ishlab chiqarishdan ajralmagan holda oliy ma'lumot olish imkoniyatini yanada kengaytirish, bosqichma-bosqich masofaviy ta'lim shaklida kadrlar tayyorlashni yo'lga qo'yish kabi bir qator istiqbolli rejalarni ham mazkur kitobdan o'rin olgan.

Bugungi kun uchun zarur bo'lgan yangi avlodni, ilm-fan va o'z ixtisosligi asoslarini puxta egallagan, bilimli yoshlarni tarbiyalash ta'lim sohasining yana bir eng asosiy vazifasi ekanligi ayni haqiqatdir.

Shu bilan birga, aniq fuqarolik pozitsiyasiga ega bo'lgan, jamiyat, davlat manfaatlarini himoya qiladigan, xalq hayotidagi o'zgarishlar va islohotlarda faol qatnashadigan, zamonaviy va keng tafakkurli yosh avlodni shakllantirish vazifasi ham nihoyatda muhim, albatta.

Bugungi kunda jamiyatimizda o'qituvchi va murabbiylarimizning sha'ni va g'ururi tiklanayotgani barchamizni quvontiradi. Ayni vaqtda bu o'ta muhim masala eng dolzarb vazifamiz ekanligi, uni amalga oshirish butun



jamiyatimizning burchiga aylanishi lozimligini ta'kidlab o'tadilar muhtaram yurtboshimiz «Yangi O'zbekiston strategiyasi» kitobi satrlarida.

Bugun har bir o'qituvchi va tarbiyachi, oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari ta'lim va ilm-fan sohasidagi eng so'nggi ijobiy yangiliklarni o'quv jarayonlariga tatbiq eta oladigan, chuqur dunyoqarash egasi, bir so'z bilan aytganda, zamonamiz va jamiyatimizning eng ilg'or va tajribali vakillari bo'lmog'i lozim. Shu ma'noda, o'qituvchi va murabbiylarga bo'lgan hurmat-e'tiborni oshirish, muallim va ustozlarning qadri, sha'ni va g'ururini tiklash, ularni ham ma'naviy, ham moddiy qo'llab-quvvatlash kabi samarali ishlar muntazam davom ettirilmoqda.

Butun uzluksiz ta'lim tizimini huquqiy tartibga solishga qaratilgan yaxlit Ta'lim kodeksining ishlab chiqilishi, jumladan, oliy ta'lim muassasalarida tahsil olayotgan bakalavrlar uchun «Ma'naviyatshunoslik», magistratura mutaxassisliklari uchun esa «Kasb ma'naviyati» fanlarining joriy etilishi ham yoshlarimizning dunyoviy fikrlash, teran tafakkur sohiblari hamda Yangi O'zbekistonning kelajak bunyodkorlari bo'lib yetishishida dasturlamal bo'lib xizmat qiladi degan umiddamiz.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, mazkur kitob kitobxona Yangi O'zbekistonning zamonaviy demokratik qiyofasi qanday yaratilayotgani, mamlakatni yangi rivojlanish bosqichiga ko'tarish uchun belgilab olingan strategiyaga yo'l to'g'risida yaxlit tasavvur hosil qilish imkonini beradi. Shu bilan birga, har bir fuqaroni yangi, ilg'or g'oyalar, ezgu tashabbuslar bilan ishlagha undaydi.

Ilhomjon TO'XTASIMOV,
Samarqand davlat chet tillar
institutini rektori, professor.

QONUNCHILIKDAGI YANGILIKLAR

Masofaviy elektron deklaratsiyalash bo'jxona postlari tashkil etiladi

Prezidentning 10.09.2021-yildagi «Bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish va davlat bojxona xizmati organlari tashkiliy tuzilmasini yanada takomillashtirish to'g'risida»gi PF-6310-sonli Farmoni qabul qilindi.



Hujjat bilan Davlat bojxona qo'mitasining (DBQ) toifadan tashqari maqomga ega bo'lgan masofaviy elektron deklaratsiyalash bo'jxona postlarini tashkil etish to'g'risidagi takliflari ma'qullandi.

Joriy yil 1-oktabrdan boshlab ular DBQning Toshkent, Sirdaryo, Qashqadaryo va Xorazm viloyatlari bo'yicha boshqarmalarida paydo bo'ladi. 2022-yil 1-apreldan boshlab - DBQning boshqa hududiy boshqarmalarida bosqichma-bosqich tashkil etiladi.

2021-yil 1-oktabrdan boshlab: — masofaviy elektron deklaratsiyalash bo'jxona postlari tashqir iqtisodiy faoliyat (TIF) ishtirokchilari tomonidan taqdim etilgan elektron bo'jxona yuk deklaratsiyalash masofaviy bo'jxona rasmiylashtiruvini amalga oshiradi;

— chegara bojxona postlaridagi inspeksion ko'rik majmualari (rentgen) bilan ishlab guruhlar xodimlariga zararli mehnat sharoitlari uchun Davlat budjeti mablag'lari hisobidan lavozim maoshining 40 foizi miqdorida har oylik ustama beriladi.

2021-yil 1-dekabrda boshlab O'zbekiston Davlat chegarasi orqali avtomobil o'tkazish punktlarida:

— veterinariya va fitosanitariya organlarining tovarlarga tegishli hujjatlarini tekshirish va rasmiylashtirish vazifalari «Yagona darcha» bo'jxona axborot tizimi yoki unga integratsiyalashgan axborot tizimlari orqali amalga oshiriladi;

— veterinariya va fitosanitariya organlari tomonidan tovar-transport hujjatlariga muhr bosish va ularni ro'yxatga olish amaliyoti bekor qilindi;

— to'lanadigan barcha yig'implarni transport vositalari chegara punktiga kirgungacha qadar yagona hisobvaraqa asosida oldindan to'lash amaliyoti joriy etiladi.

Tadbirkorlar talabalar uchun DXSH asosida turar joylar quradi

Vazirlar Mahkamasining 09.09.2021-yildagi «Respublika oliy ta'lim muassasalarida talabalarni turar joy bilan qamrab olish darajasini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi 563-sonli qarori qabul qilindi.



Hujjat bilan belgilanishicha, talabalar turar joylari davlat-xususiy sheriklik shartlari asosida quyidagi shakllarda barpo etiladi:

— loyihalarni tadbirkorlik sub'yekting o'z mablag'lari hisobidan erkin kelishiladigan shartlar asosida moliyalashtirish;


— loyihalarni tadbirkorlik sub'yekti va Davlat budjeti mablag'lari hisobidan aralash moliyalashtirish (kamida 200 o'rinni turar joyni barpo etish uchun);

— loyihalarni tadbirkorlik sub'yekting to'liq o'z mablag'lari hisobidan moliyalashtirish (kamida 400 o'rinni turar joyni barpo etish sharti bilan).

Hokimliklar turar joylar qurilishi uchun OTMga 0,5 gektargacha bo'lgan yer maydonlarini unga yaqin joylardan ajratadi.

Tadbirkorga tegishli yer maydoni yoki binoda kamida 50 o'rinni turar joylarni tashkil etish tizimi joriy etiladi. Bunda, talabalardan har oy yashash uchun yig'iladigan to'lov OTM bilan kelishiladi. Turar joyda yashagan har bir talaba uchun tadbirkorga bir o'quv yili uchun Toshkent shahrida BHMning 10 baravari, boshqa hududlarda esa 5 baravari miqdorida subsidiya taqdim etiladi.

2021-yil 1-sentabrdan boshlab talabalar bilan ishlab bo'yicha «guruhiy murabbiy» instituti bekor qilinadi. 1-3-kurs talabalari holatini doimiy ravishda tahlil qilib boruvchi, mavjud muammolarni bartaraf etishda yaqindan yordam ko'rsatuvchi tutorlarni biriktirish amaliyoti yo'lga qo'yiladi. Har 120-150 nafar talabaga 1 ta shtat birligi hisobida «tutor» lavozimi kiritiladi hamda uning oylik maoshi o'qituvchi-stajyor bazaviy lavozim maoshiga tenglashtiriladi.




talabalar soni yildan yilga tobora ortib bormoqda. Bu esa o'z-o'zidan yangidan yangi o'quv binolari, talabalar turar joylari va kutubxonalarni qurishni, jumladan, yangi ta'lim yo'nalishlari, fakultetlar hamda filiallarni ochishni taqazo etmoqda.

Prezidentimiz hududlardagi o'zgarishlar, aholi hayoti bilan yaqindan tanishish maqsadida Samarqand viloyatiga tashrif chog'ida viloyat miqyosida oliy ta'lim tizimida katta o'zgarishlar bo'lishini ma'lum qildi hamda mas'ullarga qator vazifa va ko'rsatmalar berdi. Ushbu topshiriqlarga binoan 2021-2022-o'quv yilidan

YOSH TADBIRKOR — YURTGA MADADKOR

Joriy yilda Prezidentimizning mamlakatimiz tarixida ilk bor tadbirkorlar bilan ochiq muloqoti bo'lib o'tdi. Davlatimiz rahbari o'z nutqida yoshlar va ayollar tadbirkorligi haqida alohida to'xtaldi va samarqandlik yosh tadbirkorlar faoliyatiga e'tibor qaratdi.

Mamlakatimizda so'nggi besh yilda yoshlarning g'oya va taklif, tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash, tadbirkorlik faoliyatlarini yo'lga qo'yishlariga ko'maklashishga alohida e'tibor qaratilmoqdaki, bu har bir yoshni yanada kuch-quvvat va g'ayrat bilan ishlagha undayapti. Aniq raqamlarga to'xtaladigan bo'lsak, bu yil Respublikamiz miqyosida 92 mingdan ziyod yoshlarning tadbirkorlik loyihalari uchun 2 trillion 300 milliard so'm imtiyozli kreditlar ajratilgan bo'lsa, bu Samarqand viloyatida 8 011 nafar yoshlarga 194,2 milliard so'm miqdoridagi kredit mablag'larini tashkil qilib, buning natijasida minglab yoshlarning doimiy ish bilan bandligi



ta'minlandi.

Shahzod Quvondiqov Ishtixon tumani Qorag'oy mahallasida istiqomat qiladi. Yosh tadbirkor 250 million so'm bank krediti evaziga mebel ishlab chiqarish korxonasini ochdi. Ayni paytda bu yerda Xitoydan keltirilgan zamonaviy texnologiyalar yordamida turli oshxona, yotoqxona, bolalar xonasi, maktabgacha ta'lim tashkilotlari

uchun mebel jihozlari tayyorlanmoqda. Eng muhimi esa, yosh tadbirkor o'zi tengi o'n nafarga yaqin yoshlar bandligini ta'minlashga hissa qo'shdi.

E'tirof etish lozimki, mazkur kichik korxonada yaratilgan quvaylik va yoshlarning o'z ishlarini puxta, vaqtida bajarishlari bois 20 turdagi mebel jihozlari sifat jihatidan ancha yuqori tarzda tayyorlanayapti. Yosh tadbirkor Shahzod ham bevosita dastgohlarda ishni bajarishga kirishadi. Har bir mahsulotni puxta, zamonaviylik va milliylikni uyg'unlashtirgan holda tayyorlashga alohida e'tibor beradi. Yog'och xom-ashyosini respublikamizning turli viloyatlaridan, metallni esa «Aziya metal prof» korxonasidan xarid qilgan ekan. Bu o'z navbatida mahsulot tanaraxi oshib ketishining oldini olishga xizmat qiladi.

(Davomi 2-betda)

ILM-FAN - INNOVATSION TARAQQIYOT ASOSI



tomonidan qabul qilinayotgan qarorlar, amaliyotga tatbiq etilishi kutilayotgan reja va dasturlarni, ya'ni 2017-2021-yillarda O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi, ma'naviy-ma'rifiy sohalaridagi ishlarni yangi tizim asosida yo'lga qo'yish bo'yicha beshta muhim tashabbus kabilarni keltirishimiz mumkin.

Shuningdek, yurtimizni bosqichma-bosqich bozor iqtisodiyotiga olib chiqish va undagi rolini mustahkamlashda Prezidentimiz tomonidan taqdim etilayotgan kitoblar ham dasturlar bo'lib xizmat qilmoqda. Prezidentimizning mamlakatimiz siyosiy hayotida muhim ahamiyatga molik bo'lgan ana shunday kitoblaridan biri «Yangi O'zbekiston strategiyasi» nomli yangi kitobidir. Mazkur kitob yetti bobdan iborat bo'lib, o'n ming nusxada nashr qilingan. Unda ayni paytda dunyo miqyosida keskin tus olib borayotgan raqobat hamda bunday shiddatli raqobatga faqat zamonaviy ilm-fan, yuqori texnologiyalar va innovatsiya yutuqlarini keng joriy etish orqaligina munosib javob bera olishimiz ta'kidlangan.

Bundan tashqari, kitobda «dunyodagi rivojlangan mamlakatlar o'z oldiga nafaqat mahsulot ishlab chiqarishni ko'paytirish va ularni bozorga olib chiqishni, balki chuqur bilim va ilmiy yutuqlarga asoslangan innovatsion iqtisodiyotga o'tish vazifasini qo'ymoqda.

(Davomi 2-betda)

TA'LIM TIZIMIDAGI ISLOHOTLAR

Bugungi kunda mamlakatimizni faqatgina markaziy shaharlar misolida emas, eng chekka qishloq yoki tumanlardan tortib, ayni vaqtda o'zining iqtisodiy salohiyatini kundan kunga yuksaltirib borayotgan tumanlar, viloyatlar hamda shaharhalarning ham ijtimoiy-iqtisodiy faoliyatiga alohida e'tibor qaratib, jahon miqyosida yuksaltirish eng ustuvor vazifalardan hisoblanmoqda.

O'zining turmush sharoitlarini borgan sari yaxshilab borayotgan, aholiga qo'shimcha imkoniyatlar yaratib berish yo'lida tizimli ishlarni amalga oshirayotgan tumanlardan biri Bulung'ur tumanidir. Mazkur tuman faqatgina bir sohaga e'tibor qaratmasdan, boshqa yo'nalishlarda ham o'zining mamlakat miqyosidagi o'rni va rolini yanada mustahkamlash maqsadida qator ishlarni amalga oshirib kelmoqda.

So'zimizning isboti sifatida, bilim va malakaga ega, yaxshi psixolog maktabda o'quvchi va o'qituvchining eng yaqin yordamchisi, sirdoshi va hammaslagi bo'la oladi. Bu yo'nalishga ham e'tibor qaratilib, bir qator islohotlar amalga oshirilmoqda. Oxirgi besh yillikda maktab psixologlarining oylik

maoshlari bir necha barobar oshirildi. Buning natijasida boshqa sohalariga ishga o'tib ketgan psixologlar o'z vazifalariga qayta boshlashdi. Boshqa fan o'qituvchilari ham qayta tayyorlov kurslarida ta'lim olib, psixolog lavozimida ishlab boshlashdi va psixolog mutaxassislar bilan ta'minlanganlik foizi oshib bormoqda. Bulung'ur tumani misolida olsak, 2019-yilda 58 %, 2020-yilda 64 %, 2021-2022-o'quv yilida 85 % mutaxassis psixologlar bilan ta'minlandi. Bu ko'rsatkich boshqa fan o'qituvchilarini psixologiya yo'nalishida qayta tayyorlov kurslarida o'qitish evaziga, 2022-yilda 95 % ni tashkil etadi. 2022-2023-o'quv yilidan tuman maktablarida mutaxassis va qayta tayyorlovdan o'tgan psixologlar faoliyat olib boradi, ya'ni 100 foizlik natijaga erishiladi. Joriy yilda 9 nafar mutaxassis psixologlarimiz Prezidentimizning 2021-yil 2-apreldagi tegishli qaroriga asosan, Samarqand viloyati ichki ishlar organlarida yangi tashkil etilgan «Yoyaga yetmaganlar masalalari bo'yicha inspektor-psixolog» lavozimiga tanlov asosida ishga qabul qilindi.

(Davomi 4-betda)

ILM-FAN - INNOVATSION TARAQQIYOT ASOSI

« (Davomi. Boshlanishi 1-betda)

Ya'ni, o'z iqtisodiyotini mavjud tabiiy resurslarni sarflash evaziga emas, innovatsion mahsulotlar yaratish, o'zlashtirish va ilg'or texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy qilish orqali rivojlantirish taraqqiyotining asosiy omiliga aylanmoqda.

fundagi tegishli huquqiy baza bilan tartibga solinadigan tub tarkibiy, tashkiliy-moliyaviy infratuzilmaga oid islohot hamda o'zgarishlarni amalga oshirishni talab etadi. Bularning barchasi



mamlakatimizda keyingi yillarda ilm-fanni rivojlantirish borasida ushbu sohada yuqori malakali ilmiy va muhandis kadrlar tayyorlash hamda ularni ilmiy faoliyatga yo'naltirish borasida, avvalo, davlat ilmiy tashkilotlarida yangi kadrlar siyosati joriy qilinish, asosiy e'tiborni kadrlar bilan ishlashning strategik boshqaruvini joriy etishga qaratish, mutaxassislarni qayta tayyorlash va doimiy ravishda malakasini oshirib borish maqsadida xorijiy tillarni o'rganayotgan olimlar uchun turli o'quv kurslarini tashkil qilish, mahalliy va dunyoning ye-

takchi universitetlari o'rtasida o'qituvchilar va talabalar o'rtasidagi dasturlarni amalga oshirishni ko'zda tutib, oliy ta'lim muassasalarida bakalavriat va magistratura bosqichlarida tahsil olayotgan talabalar uchun ilmiy tadqiqotlar va rag'batlantirish mexanizmlarini yaratish, doktorantlar bilan ishlash, ular tomonidan olib borilayotgan ishlarni nazorat(monitoring) qilish, himoyaga o'z vaqtida chiqishini ta'minlash mexanizmlarini yanada takomillashtirish singari ustuvor vazifalarni amalga oshirishni talab etishi e'tiborga olingan. Bularning barchasi, shubhasiz, mamlakatimiz taraqqiyotida o'zining ijobiy samarasini bermay qolmaydi.

Shuningdek, bugungi kunda ushbu yo'nalishlardagi yangilanishlar bo'lganda ham zamon talablarini e'tiborga olish, islohatlarni amalga oshirish jarayonida jamiyatimiz ilm-fanning yangi qiyofasini yaratish va ushbu

sohadagi o'zgarishlar dinamikasining samarali bo'lishiga erishish masalalariga yangicha qarashlar va yondashuvlarni talab qilayotganligi barchamizga ma'lum. Shuning uchun ham endigi vazifa, nafaqat ilmiy tadqiqotlar va ishlarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash, balki ularning natijalarini amaliyotga tatbiq etishga qaratilgan samarali mexanizmlarni yaratishdir. Ushbu masalalarning asosiy yechimi ilm-fan va innovatsiyalar sohasida yetakchi mamlakatlardan qatoridan o'rinni olish, to'rtinchi sanoat inqilobi davrida xalqaro raqobatbardoshlikka erishish, to'plangan muammolarning yangi yechimlarini izlab topish, shuningdek, globallashuv tufayli yuzaga kelayotgan bahsli masalalarni hal qilishdan iborat bo'lishi kerak. Zero, jahonda yuzaga kelayotgan mana shunday murakkab vaziyatda ham mamlakatimiz jahonda tutgan o'rni va rolini yanada mustahkamlab bormoqchi lozim.

Zokir BAZAROV, Samarqand davlat chet tillar instituti akademik litseyi ijrochi direktori.

O'zbek xalqida necha asrlar davomida qadrlanib, avloddan avlodga o'tib kelayotgan qanchadan qancha urf-odatlar-u an'analar bor. Ana shunday o'lims va muhim ahamiyatga ega, o'zbek ekanligimni ifoda etib turadigan, milliylikimni o'zida namoyon etadigan odatlarimizdan biri bu salom berishdir. Barchamiz esimizni tanibmizki, bobo-buvilarimiz, ota-onamiz, aka-opalarimizdan: "O'zingdan kattalarga birinchi bo'lib salom ber, bu sening odobing va olgan tarbiyangning ko'zgusidir", - degan gaplarini eshitamiz. Chindan ham insonning birgina berayotgan salomi, uning atrofdagilarga munosabati-yu, madaniyatidan xabardor etadi.

Esimda, kichkinaligimda doim oym-larga ergashib yurardim. Qayerga borsa men ham orqa-



tirmaganman. Chunki menga bolaligidanoq uydaham, maktabda ham kattalarga salom berish kerak deya o'rgatishgan. Mana hozir oliy ta'lim dargohida tahsil olayman. Bu yerdagi o'qituvchilarim ham bolaligidand buyon eshitgan va bilgan o'sha salom berish odobi haqida eslatib turishadi. Lekin ming afsuski,

MILLIYLIGIMIZ KO'ZGUSIGA YETARLICH A'E'TIBOR QARATYAPMIZMI?

laridan qolmasdim. O'sha paytlar ko'chako'chako' ydaga ketayotganimda oym hammaga salom berardim. Oym salom bergan odamlarning ko'pchiligini tanimasalar ham "Nega salom berar ekanlar?" - deb xayolimga ham kel-tirmaganman. Chunki menga bolaligidanoq uydaham, maktabda ham kattalarga salom berish kerak deya o'rgatishgan. Mana hozir oliy ta'lim dargohida tahsil olayman. Bu yerdagi o'qituvchilarim ham bolaligidand buyon eshitgan va bilgan o'sha salom berish odobi haqida eslatib turishadi. Lekin ming afsuski,

keyingi paytlarda ayrim insonlar bu haqida unutib qo'yishyapti chog'i. E'tibor bering-a, men faqat yoshlarni nazarda tutmay, balki ayrim insonlar deya urg'u beraypman. Sababi salomlashish odobining nuqsonlari nafaqat yoshlarda, balki katta yoshli insonlarda ham uchrayapti. Misol uchun, yaqindagina o'zim guvoh bo'lgan voqeani aytaulik, har doimgidek o'qishdan qaytishda o'zim o'qigan maktab yonidan o'tib kelayotgan edim. Maktabda endigina darslar tugagan chog'i, o'quvchilar maktab hovlisidan chiqib kelayotgan ekanlar. Shunda mendan oldinda ketayotgan bir ayolga o'sha o'quvchilardan biri "Assalomu alaykum" dedi. Ayol esa bolaning salomini eshita turib, yonidan indamay o'tib ketdi. Salom bergan o'quvchi qolib qaytga men noqulay ahvolga tushdim. Agar salomingizga javob qaytarishmasa siz ham shunday ahvolga tushmaymizmi? To'g'ri, balki o'sha ayolning qandaydir muammosi bo'lgandir, balki shunchaki kayfiyati bo'lmagandir. Lekin nima bo'lganda ham hali ta'lim-tarbiya olayotgan bolalarga bunday namuna ko'rsatib bo'lmaydi.

Menimcha salomga alik olmaslik salom bermagandan ham ko'ra yomonroq qusur emasmi? Bu holatga bir kuni men ham duch kelganman. Bir marta yo'lda ketayotganimda bir kichkinagina qizaloq menga salom berdi. O'sha paytda nimadandir xafa edim. Lekin qizchani menga bergan salomidan keyin kayfiyatim o'z o'zidan ko'tarilib ketdi. Keyin men ham unga jilmayib salom berdim. Mana shu voqeadan keyin tushunib yetdimki, oddiygina salom ham inson kayfiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatir ekan.

Bundan tashqari salom berish har qaysi bandaning bo'yindagi qarz ekanligini payg'ambarimiz ham ta'kidlagan. Salomga alik olish esa odamlarning vijdoniga havola. Bu borada kekxa yoshdagi otaxonlar-u onaxonlar unib o'sib kelayotgan yosh avlodga namuna bo'lishlari turgan gap. Nega boshidanoq aytmoqchi bo'lgan gapim shuki, salom berish deganda faqat bilgan, tanigan insonlarimizgagina salom berishni tushunish xato. Salomga har qaysi inson loyiq. Axir biz salom berish orqali o'sha odamga sihat-salomatlik tilamaymizmi?! Mana shuning uchun ham salom berish insoniy fazilatlarining eng go'zali desak aslo adashmaymiz.

Mubina SOLEYEVA, SamDCHTI Uzoq sharq tillar kafedrasini o'qituvchisi.

« (Davomi. Boshlanishi 1-betda)

Mamlakatimizda xotin-qizlar bandligi, ularning doimiy daromad manbayiga ega bo'lishlariga alohida e'tibor qaratilayapti. Yosh tadbirkor Shahzod Quvondiqov ham mazkur korxonada

YOSH TADBIRKOR — YURTGA MADADKOR

xotin-qizlar bandligini ta'minlashga birinchi galdagi vazifalardan biri sifatida qarayapti. Xotin-qizlar bu yerda tikuv mashinalarida mana bunday yumushlarni bajarishadi va maoshlari ham yetarli ekanligidan mamnun.

Shahzod Quvondiqovning otasi Akmal Toshtemirov usta duradgor. Yosh tadbirkor dastlab otasining yonida turib hunar sirlarini o'rgandi. Bugun zamonaviy texnologiyalarda mana bunday bejirim uy-ro'zg'or mebel jihozlarini ko'rsatuvimiz qahramoni ham qunt ila tayyorlay oladi. Shu yo'nalishdagi tadbirkor soha sir-asrorlarini bilmasa, ishini olib ketishi qiyin, - deydi Akmal Toshtemirov.

Mamlakatimizda yaratilgan shart-sharoit va imkoniyatlardan to'g'ri foydalanish borasida o'g'liga o'git bera turib.

Ha, ot izini toy bosar deganlaridek, yosh tadbirkor tomonidan asosiy e'tibor bugun sifatl mahsulot ishlab chiqarishga qaratilgan. Korxonada

ishchilar ham o'z yumushlarini astoydil bajarishadi. Xomashyo yog'och holda keltiriladi va bir necha jarayonlardan so'ng tayyor mahsulotga aylanadi.

Tadbirkorlik loyihalarning qo'llab-quvvatlanayotgani, qulay ishbiarmonlik muhiti yaratilayotgani ko'plab ish o'rinlari yaratilishi va aholining doimiy daromadga ega bo'lishlari, iqtisodiyotimiz yuksalishiga omil bo'layapti. Bu yo'lda esa Shahzod kabi tadbirkor yoshlarning dadil va ishonchli qadamlari ko'plab tengdoshlariga ibrat bo'lmoqda.

O'z muxbirimiz.

THE ROLE OF GAMES IN TEACHING CHILDREN

The goal of learning any foreign language is to be able to communicate fluently in that language. Teaching and learning foreign languages is a long and perfect process. It requires the person to work hard on himself. The use of various games to develop skills is not boring, but makes it funny and exciting activity. Games encourage learners to be freer. Interactive games are especially effective in increasing grammar as well as enriching vocabulary.



sentences related to this word.

However, before applying these ideas, the teacher should relate them closely to the topic and explain clearly to the pupils the purpose of the game as well as the rules. For preschoolers, learning English through games is both easy and profitable way. Because kids are playful, they enjoy playing games. It is also effective to play games related to mental and physical activities. These games help pupils to increase their skills and widen their horizon. Besides them, playing interactive games during lessons help students to learn more about themselves as well as energize children to become more active participants in the learning process. Games cause smaller stress than having answer questions or doing similar tasks.

are just learning English. The letters should be written on the blackboard, when the teacher pronounce [e], the child should find the letter A.

In and out — this game is played with small children. When teacher says "in" the children should move in when he says "out" the children should move out. Children who break the rules or do task wrong will leave the game.

Simon says — this game is useful for listening skills. The teacher asks children to do tasks (Simon says: stand up or sit down), then children should hear the teacher and do the tasks.

The chain game — it helps children to check and increase their memory. At the beginning, one topic should be chosen, then the first child says a word which is related to the topic, the other child repeats first child's word and says his own new word. If someone forgets the word, he will leave the game.

The word game — the purpose of the game to increase vocabulary. This game is suitable for ten - fifteen years old children. The teacher says a word and children must give definition of this word, find out synonyms and antonyms, and make

Matching game — this game can be used at all ages. The teacher can use colorful pictures or sentences on the handouts. Children must do the tasks as it is given in the example.

Guessing games — this game is helps to improve speaking skills. One child thinks about person, place or thing. The other children can ask 20 Yes/No questions to find information in order to find who or what the person is thinking of.

By playing games, children become more motivated to learn, be aware of the topic and take part in set tasks. Games help children to become a part of a team and have a good connection with others as well as take responsibility for their own learning. Games can also be a great classroom management tool, help to motivate a class.

Umida ANVAROVA, Samarqand davlat chet tillar instituti talabasi.

BOLA TARBIYASIDA O'QITUVCHINING ROLI

Qadim-qadimdan bolaga tarbiya berish, uni yaxshi yo'lga solish eng savobli hamda mas'uliyatli ishlardan biri bo'lib kelmoqda. Hozirgi zamonaviy va integrallashgan dunyo sahnasida endi yetishib chiqayotgan yosh avlodga o'qitish metodikasining eng yangi usullarini o'rgatish juda muhimdir.

Zero, nafaqat O'zbekiston kelajagi, balki butun dunyo kelajagi va o'rinni yosh avlod belgilab beradi. Ta'lim samaradorligini oshirishda o'qituvchining roli juda muhim, chunki u ta'lim berayotgan har bir o'quvchi ertangi kunda mustaqil shaxsga aylanadi. Shuning uchun ham kasblar orasida muallimlik kasbi o'zgacha va muhim ahamiyat kasb etishi bilan ajralib turadi.

O'quvchilarga sifatli ta'lim berish uchun o'qituvchidan professionallik va o'z ishiga o'ta sodiqlik talab etiladi. Masalan, sizning farzandingiz har kuni ertalab "Maktabga bormayman!", deb xarxasha qilyaptimi, demak bolada maktabga nisbatan yohud o'qituvchiga nisbatan salbiy fikr shakllangan. Buning natijasida bolada o'zi o'rganayotgan fanga bo'lgan qiziqishning yo'qolishi, erinchoqlik, sustkashlik kabi odatlar paydo bo'ladi. Bunday muammolarning oldini olish uchun esa o'qituvchidan birinchi navbatda bola

psixologiyasini bilish va o'z ishiga sabr va bardosh bilan yondashish talab qilinadi. Muhim ma'lumot sifatida shuni ham aytib o'tish dorkorki, 7 yoshdan to 14 yoshgacha bo'lgan bolalarda aqliy yetuklik yaxshi rivojlanmagan va ular endi maktab muhitiga kirganliklari bois uyiga talpinish, o'qituvchiga bo'yusnmaslik kabi holatlar ko'p uchrab turadi. Bunday paytda har bir o'quvchi bilan alohida-alohida individual tarzda ishlash, ular qanday xarakter egasi bo'lsa, o'sha xarakteriga mos savollar bilan murojaat qilishi, yohud boladagi muammo va kamchiliklarni o'ta-onasiga ham to'g'ri tushuntirgan holda, ularni ham farzandining tarbiyasiga e'tiborli bo'lishga chaqirish maqsadga muvofiqdir.

Umuman olganda, ta'lim-tarbiya berish o'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi aloqadir. Bu jarayonda o'z kasbiga sodiq, yetuk aqliy hamda jismoniy salohiyatga ega, bolalarning psixologiyasini puxta biladigan, malakali pedagog talab etiladi. Shu jumladan, endi yetishib kelayotgan yosh avlod ongiga vatanga bo'lgan mehr-muhabbat va uning kelajagi uchun mas'uliyat hissini singdirish har bir o'qituvchi oldidagi muhim burchlardan biridir.

Marjona TURSUNOVA, SamDCHTI talabasi.

Biz XXI asr, texnologiyalar zamonida yashamoqdamiz. Raqamli texnologiyalar hayotimizning deyarli har bir jabhasida namoyon bo'lmoqda. Ular bugungi kunda kundalik yumushlarimizni, turmush tarzimizni bir qancha yangilashib, mushkulimizni oson, uzog'imizni yaqin qilmoqda. Ijtimoiy tarmoqlar esa allaqachon hayotimizning ajralmas qismiga aylanib ulgurgan desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Ijtimoiy so'rovnomalari natijasi shuni ko'rsatadiki, yoshlar bir kunda qariyb 7-9 soat vaqtini uyali aloqa vositalariga sarflar ekan. Kimlardir ularni ezgu va o'zlari uchun samarali yo'lda qo'llaydi, ma'rifat topadi, ilm izlaydi. Achinarlisi, tanganing ikki tomoni bo'lgandek, hamma ham axborot texnologiyalaridan to'g'ri yo'lda foydalanmaydi.



Misol tariqasida bugungi kun yoshlarini olaylik, ular insoniyat erishgan yutuqlardan unumli foyda-

mustaqil fikriga ega bo'lmagan, vatan, el-yurtga muhabbat va hurmat ehtirom ruhida tarbiyalanmagan, aqlan yetuk bo'lmagan insondan kelajakda nima kutish mumkin? Ulardan kelgusida qanday avlod shakllanadi-yu, ularning o'zlari qanday avlodni vovaga yetkazishadi?!

Yoshlik insoniyatga Yaratgan tomonidan taqdim etilgan ne'matlar ichida eng qadrlisidir, inson hayotining eng go'zal va takrorlanmas damlari ham, aynan, yoshlikda bo'ladi. Shu bilan birgalikda bu vaqt ko'z ochib yumunguncha o'tib ketadi. Shuning uchun ham umrimizning bahorini keraksiz, kelajagimizni jar yoqasiga olib boradigan ishlarni uchun, shunchaki vaqtimizni o'g'irlashdan boshqa narsaga yaramaydigan yumushlar uchun sarflamaylik! Aks holda bu bilan nafaqat o'z kelajagimizga, balki butun millat ertasiga xiyonat qilgan bo'lamiz!

Islom TOJIBOYEV, Samarqand davlat chet tillar instituti talabasi.

Ta'lim olish har bir davr uchun dolzarb masala bo'lib, u yildan yilga o'zgarib, yangilanib boradi. Bugungi kunda ta'lim berishning va bunga javoban ta'lim olishning turli xil shakllari mavjud bo'lib, quyida shular haqida so'z yuritamiz. Innovatsion texnologiyalar ta'lim-tarbiya jarayoniga yangilik kiritish zamirida uning sifat samaradorligini ta'minlashga erishish demakdir.



dit)ning qiymatini aniqlash; — talabalar bilimni reyting bali asosida baholash; — talabalarga o'zlarining o'quv rejalarini individual tarzda tuzishlariga imkon yaratish;

Bugungi jadallik bilan rivojlanayotgan davrda kompyuter texnologiyalardan unumli foydalanishning bir ko'rinishi bu modul platformasida ishlashdir. Kredit- modulning afzallik tomonlari ham mavjud bo'lib, bunda ta'lim oluvchilar

pandeimiyasi tufayli maktablarda va oliy o'quv yurtlarida bu shakldan keng foydalanilmog'ada.

Masofaviy ta'limni qo'llashning bir qator ustunlik va qulaylik tomonlari mavjud. Jumladan:

- 1. Talim vaqti ixtiyoriy, talaba ixtiyoriy vaqtda o'qishi, o'rganishi mumkin;
2. Mashg'ulotlarni auditoriyada o'tishi shart emas;
3. Talabalarga mustaqil shug'ullanishni o'rgatadi;

Aralash o'qitish o'zida quyidagil Yevropa ta'limi modellari jamlaydi:

- 1. Masofaviy talim
2. Auditorial ta'lim
3. Internet ta'lim
4. Uzuksiz ta'lim

Vebinar mashg'ulotlar - ushbu ta'lim jarayoni ham bugungi kunda barcha kasblar orasida keng qo'llaniladigan ta'lim shaklidir. Ushbu ta'lim jarayonida mashg'ulotlarni olib borish uchun pedagoglarning oldiga veb-kamera o'rnatilib, u tomonidan tashkil etilgan mashg'ulot tarmoq orqali namoyish etiladi.

Yuqorida aytib o'tilgan barcha ta'lim jarayonlari

INNOVATSION TA'LIM HAQIDA NIMALARNI BILASIZ?

Bugungi kunda zamon talablariga mos ravishda ishlab chiqilgan ayrim ta'lim tizimlariga to'xtalib o'tmoqchigan. Ular:

Kredit-modul — innovatsion ta'limning eng takomillashgan shakli hisoblanadi. Bu — ta'limni tashkil etish jarayoni bo'lib, o'qitishning modul texnologiyalari jamlanmasi va kredit o'lchovi asosida baholash modeli hisoblanadi. Kredit-modul tamoyilida ikkita asosiy masalaga ahamiyat beriladi: talabalarining mustaqil ishlashini ta'minlash; talabalar bilimni reyting asosida baholash.

Kredit-modul tizimining asosiy vazifalari sifatida quyidagilar e'tirof etiladi: — o'quv jarayonlarini modul asosida tashkil qilish; — bitta fan, kurs (kre-

mustaqil fikrlash va bajarish kabi bosqichlardan o'tishadi. Bu esa o'quvchilarning aqliy salohiyati o'stirish uchun zamin bo'lishi shubhasizdir.

Masofali ta'lim — bu muayyan bir nuqtadan zamonaviy texnologiyalar (kompyuter, radio, televiziya, video, multimedia va boshqalar) yordamida fanni chuqur o'zlashtirish uchun yo'lga qo'yilgan ta'lim shaklidir. O'qitishning bu shakli ta'lim oluvchilar va o'qituvchilarning bir-birlari hamda o'qitish vositalari bilan o'zaro ta'sirining maqsadga yo'naltirilgan interfaol jarayonidan iborat bo'lib, bunda ta'lim jarayoni maxsus vositalar orqali olib boriladi. Masofali ta'lim chekka joylarda istiqomat qiladigan ta'lim oluvchilar uchun qo'llanibgina qolmay, bugungi kunda koronavirus

- 4. O'qituvchilardan yuqori tayyorgarlikni talab qiladi;
5. Talabalar amaliy va sifatli bilim olishlari mumkin;
6. Talabalarining mustaqil fikrlash va qaror qabul qilish qobiliyati rivojlanadi;

Aralash o'qitish — bu yangi o'qitish texnologiyasi hisoblanishiga qaramay, bugungi kunda keng tarqalib bormoqda. Ushbu shakldagi o'qitish jarayonida talaba mustaqil ta'lim oladi, ammo ayni vaqtda unga o'qituvchi yordamlashadi. Bunda talaba onlayn dars jarayonida guruh va o'qituvchi bilan bo'layotgan suhbatda bevosita ishtirok etadi. Shu tufayli bu shaklda fikr almashish asosiy vosita sanaladi. Aralash o'qitish muvaffaqiyati ta'lim vositalarining to'g'ri tanlanishi bilan belgilanadi.

bugungi kunda keng qo'llanilib, ta'lim oluvchi tomonidan katta qiziqish bilan o'zlashtirilmoqda. Ta'lim sifatini oshirish uchun ishlab chiqilayotgan shunday ta'lim jarayonlari tahsil oluvchilarga, ayniqsa, xorijiy tillarni o'zlashtirishda ayni muddao bo'lmoqda. Ko'p vaqt va sarf-xarajat talab qilmaydigan bunday ta'limdan barcha birdek mamnun bo'lmoqda va faol ishtirok etishmoqda. Yurtimizda ham ta'lim jarayonida ta'lim taraqqiyotining ilg'or xorijiy tajribalaridan keng foydalanilmog'ada. Bularning barchasi o'sib kelayotgan yosh avlodning malakali kadr bo'lib yetishishi yo'lida o'zining ijobiy samarasini berishi turgan gap.

Shahrizoda ERGASHEVA, Samarqand davlat chet tillar instituti talabasi.

BIZ QAYSI YO'LDAMIZ?!

lanayaptimi? Afsuski, unday emas! Ko'pchilik o'smirlar vaqtini kutubxonalarda emas, balki ijtimoiy tarmoqlarda, turli qo'rqinchi kadrlar aks etgan, qotillik oshkora ijro etilgan mobil o'yinlar o'yash bilan o'tkazishmoqda. Ijtimoiy tarmoqlarda tarqalgan bemani videolarga, o'yinlarga taqild qilib, o'zlari sezmaganda turli xil yot

g'oyalari ta'siriga tushib qolayotgan, hattoki ularning ta'sirida o'zligini unutayotganlar ham yo'q emas! Kitob mutolaa qilmagan, bilim olmagan insonning ongida ma'naviy bo'shliq paydo bo'ladi, bunday shaxslarni esa har qanday fikr yoki g'oyaga osongina ergashtirib ketish mumkin. Ana shunday ma'naviy olami qashshoq, o'zining

(Davomi. Boshlanishi vladimiri sonlarida)

— Sit down, tell me, what is your request? — said Navoiy affably.
The farmer squatted in front of the door.
— The trouble fell upon me. I am from Isfizara, — he said, and suddenly asked: Shall I tell? It will be a long talk.
— Speak, — Navoiy replied with a smile.
— I have only one horse with decent hooves suitable for our work. Suddenly a hobbler came to our village. There was a handsome boy on the horse staying behind him. I had just cleaned the horse. The warrior stopped beside me and said: "Let us ride your horse; I'll give it to my brother - that's it. Soon we are going to Herat, give me the horse" — he said. I begged, "Understand me Bek, now is the busiest time, I will not manage without the horse. Ask others and if you do not find one, please go away. Get there to the Caspian Sea. No, — he said. — I went hunting and my horse is very tired. I know all of Herat. I am Qadl son — he said."

Supply by the superiors' horses is from time immemorial custom. I mounted the horse and gave the reins to the warrior. Well, two months have passed but I heard nothing from that damned son Qadl. Ten days ago, I rode on an ass and came to Herat. I did not miss a single street, no one left without permission. Where to find it? The horse was not found, and later I had one more trouble, three days ago they stole my donkey! I went to Court of Justice but they did not listen to me. I came to you with a bow, sir.

The farmer sighed. Navoiy shook a hunger growl.
— Brother, you are struck by disaster. Whoever he was, whether Qadl son, whether military, it's a trouble. There are many hunters. They have dogs. Do you know his name?
— He said, Tojiddin.

Navoiy looked at the scribe and ordered to call Kylychbek. Then, smiling, turned to the farmer,
— Your horse will be found. His real name is hidden military, but tell me how he looked like. But look rails must be useless in which he weeds, who in the crib? Can you prove that the donkey was stolen?
— Does your servant lie? Hundreds of people in caravanery can confirm.

— If so, we will pay the cost of your donkey, — said Navoiy. — But always be careful. We, in the city, say, "Be careful, do not think your neighbour is a thief".
Farmer was confused:
— What are you talking about? Who will pay? You? No, I can manage somehow with this problem, — he said, striking his chest.

A tall, broad-chested, hooked-nosed fellow was Kylychbek. Navoiy in a few words laid the farmer's complaint and said imperiously:
— Do not settle until you are satisfied with this accident. Whether the offender is even in hell itself, find him and punish.
Kylychbek reassured the farmer:
— This man here knows everybody. Come with me.
Navoiy stopped them and ordered to pay the farmer the cost of a donkey from the treasury. Overcome with joy and excitement, the farmer came out, expressing his gratitude.
Petitioners, construction workers and craftsmen came out one after another. Each had some concern, bitterness. Navoiy listened patiently, carefully examining the content of petitions that the secretary told him. His sharp thought unraveled all the difficulties; he was able to quickly distinguish fair accusations from slander, truth from falsehood.

shroud and other expenses for a burial.
— "You are one of those who makes a problem from nothing, — said irritably Navoiy.
The scribes could not help laughing, Alishah laughed too.
Navoiy stood up and put his hand on the shoulder of Alishah.
- What to do? - he said softly. - You have a great talent... Because of respect to you, we agree to comply with your request.
Navoiy wrote a note to the manager of vaqf. The musician thanked and left.
The poet arose, intending to go home, but at the threshold encountered pahlavan Sayyid Muhammad.
— What did you come for? — asked Navoiy.
— Meeting of poets in the White Garden. All eyes were on the road waiting for you. If you're

others' ghazals or even entire sofas. Good ghazals and artfully composed muammas, lines embodying new image or idea, passed from hand to hand, learned by heart, copied and hidden in the folds of turbans.
Poets being confident that their products would be liked by Navoiy read the poem safely, with undisguised pride, rapping out rhythm. Most ghazals were like fake jewelry, blind by external luster.
So many poets, but if even one saz(national musical instrument) sounded in their native language! Pearls and pearl strung on a thread of poetry seemed to Navoiy like cheap glass beads, their luster - cold as snakeskin.
"As soon as they have some work and how much they would find in their own language the words of precious pearls" -

slightly leaning toward him, said:
— Alisher Navoiy with one stroke of his magic from the point of a Kalam creates lively eyes.
— At times when many others cannot carve a spark of stone, this one is writing in Turkic; the poet produces ice flame, — politely replied the young man.
Suddenly, from the distant alley, where sat a merry, tipsy company, the sounds of music were heard.
Magical melodies of the chang(musical instrument) and lute were played, singers performed Turkic ghazals by Lutfi. Navoiy lowered his head and closed his eyes. How beautiful is Lutfi! His ghazals, like flames, are a burning heart, captivating the guileless simplicity of the steppe language, thick fresh colors, and originality of thought.
The last wave of music gradually died away in the greenery. Navoiy raised his head. If he had spoken he probably would have exclaimed: "Singer, come and play on the Turkish saz!"
On the other supra the group of poets, sitting in a circle, was listening to Khusrawi's ghazal. Navoiy came

wanting to encourage the poet, praised individual verses.
Several young poets, still unknown in the literary world, introduced Navoiy. Alisher asked about their knowledge; scolded someone for ignorance in the field of music. After talking with the poets - madrasa students - Navoiy promised to help them with material.
Towards evening, a man came out of the palace and said that the sultan asked about Navoiy. So after the meeting, accompanied by Muhammad Said, he went to the palace.
